**SHARTNOMA № 480/2022**

(Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish)

Toshkent sh. "25" oktyabr 2022yil

Quyi Chirchiq Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor M.Axmedovbir tomondan va **"RAVON LOYIHA LUX" MCHJ**(keyingi o'rinlarda Bajaruvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor X.Abdullayev ikkinchi tomondan, joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portal orqali (Lot raqami 22110012161490) e'lon qilingan va Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tuman Obodonlashtirish boshqarmasixarid komissiyasining 2022 yil 20oktyabrdagi bayonnomasiga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

**1.Shartnoma predmeti va muddati.**

1.1. Bajaruvchi **Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani** Chaqmoq **MFY ko'chalari yo'lini joriy ta'mirlash loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish**majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini oladi.

1.2. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlarini O'zbekiston Respublikasida belgilangan huquq va qonun talablariga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqadi, shu jumladan uchinchi shaxsni yollagan xolda belgilangan tartibda loyiha-smeta xujjatlarini davlat ekspertizasidan o'tkazadi.

1.4. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlar asosida shartnoma va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab shartnomaning 2-ilovasi "Bajarish va moliyalashtirish jadvali"da belgilangan muddatlarda bajaradi.

1.5. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari bo'yicha davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertiza xulosasini olgandan so'ng, ishlarni bajarish muddati davrida 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari xujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

1.6. Ish jarayonida kelishilgan asosiy loyihaviy yechimlarni buyurtmachiga topshiriladi.

**2.Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari.**

2.1. Shartnomaning bahosi shartnoma taraflarining kelishuvi (1-ilova)ga asosan QQS bilan **14 800 000 (o'n to'rt million sakkiz yuz ming)** so'mni tashkil etadi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi "Bajarish va moliyalashtirish jadvali"ga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 kun mobaynida shartnoma bahosining 30 foiz miqdorida **4 440 000 so'm** avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Shartnoma bo'yicha qolgan mablag', Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertizasi xulosasini olib, Buyurtmachiga taqdim etgandan so'ng, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, 15 kun mobaynida dastlab to'langan avans mablag'i (shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida) ushlab qolinib, Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan hisob-faktura (schyot-fakturaga asosan) moliyalashtiriladi.

2.4. Shartnomaning bahosi uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

Dastlabki hisoblangan smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingandan so'ng, loyiha-smeta hujjatlari bahosi (mahalliy byudjetdan moliyalashtirilganda Toshkent shahar moliya boshqarmasi) Toshkent shahar va tuman (shahar) xalq deputatlari qarorlariga yoki Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro'yxatga asosan Buyurtmachi va Bajaruvchi roziligi bilan zaruratga ko'ra ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolash yo'li bilan o'zgartirish kiritish mumkin.

**3. Tomonlar majburiyatlari.**

3.1. Buyurtmachi barcha ishlar bajarilib bo'lingandan keyin belgilangan narxning hammasini Bajaruvchiga to'lashi yoki ishlarining ayrim bosqichlari tugatilganidan keyin narxning tegishli kismini to'lashi, tayyorlangan loyiha-

smeta xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan davo yuzasidan ishda qatnashishiga Bajaruvchini jalb qilishi shart.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi ma'lumotlarni (nuqsonlar qaydnomasi yoki ijro hujjatlari, pudrat tashkilotining o'rtacha ish haqi, ishlatiladigan mashinalar, mexanizmlar va texnik ko'rsatkichlarga ega transport vositalari, ularning ishlash xarajatlari ko'rsatkichlari, pudratchining boshqa xarajatlarini) taqdim qiladi.

3.3. Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlarni 10 (o'n) ish kuni moboynida o'rganib chiqishi hamda berilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa Buyurtmachiga ma'lum qilishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi malumotlarda aniqlangan kamchiliklarni, 10 (o'n) ish kuni muddat ichida Buyurtmachiga ma'lum qilmasa, ma'lumotlar qabul qilingan deb xisoblanadi va bunday xolat Bajaruvchi ishlarini bajarish muddatini o'zgartirishga asos bo'la olmaydi.

3.4. Bajaruvchi loyiha-smeta ishlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan obyektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Agar loyiha-smeta xujjatlari yordamchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi, yordamchi tashkilot bilan birga ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlari uchun to'liq javob beradi va Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha ishlarni bajarishi shart.

3.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki dastlabki ma'lumotlarni taqdim qilish kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to'lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.6. Bajaruvchi loyihaning asosiy yechimlarini Buyurtmachi bilan birgalikda tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishiladi.

## 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlari bajarilishining alohida bosqichi va shartnoma bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan loyihalash uchun topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1- bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 (o'n) kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar loyiha-smeta xujjatlari ishlarini bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun mobaynida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

4.5. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha xulosa uchun murojat qilishi mumkin.

## 5. Korrupsiyaga qarshi shart

5.1.Tomonlar:

Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlari talablarining buzulishiga olib kelinadigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni vada qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti xarakatlari/xarakatsizliklarini sodir etmaydilar.

Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarini beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni

rag'batlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti xarakatlarni/ xarakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan vos kechadilar deb ma'lum qiladilar.

5.2.. Tomonlar ushbu ilovaning 5.1 bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubxalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham habardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

**6. Konfidentsial ma'lumotlarni himoyalash.**

6.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlarining bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidentsial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

**7. Nizolarni xal etish.**

7.1. Shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolarni taraflar o'zaro muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar taraflar tomonidan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi berish va ishni sudda ko'rib chiqilishi natijasida hal qilinadi.

**8. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish.**

8.1. Mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim ko'rinishidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda qilingan hamda tomonlar (yoki tomonlar nomidan vakillar) imzolagan holdagina G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

8.2. Shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Shartnoma o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi yozma shaklda amalga oshiriladi. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnomaning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

8.3. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

**9. Fors-major.**

9.1. Fors-major vaziyatlari paydo bo'lishi munosabati bilan mazkur shartnomadagi tomonlar majburiyatlari butunlay bajarilmasa yoki qisman bajarilsa, majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday vaziyatlar ta'sir etishi vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

**10. Qo'shimcha shartlar.**

10.1. Bajaruvchi Loyiha-smeta xujjatlari ishlarini muddatidan oldin bajarganida, Buyurtmachi uni Shartnomaning 4-bandiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

10.2. Bajaruvchi Shartnoma shartlarini bajarish uchun, Shartnomada belgilangan muddatlarga rioya qilinishini inobatga olgan holda hamda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda, yordamchi tashkilotlarni jalb qilishi mumkin.

10.3. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

10.4. Bajaruvchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa, Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

10.5. To'langan penya taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.6. Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

10.7. Shartnoma 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

10.8. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova - Shartnoma bahosining kelishuvi bayonnomasi;

2-ilova - Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni bajarish va moliyalashtirish jadvali.

**10. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari**

**"Buyurtmachi"**

**Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tuman Obodonlashtirishboshqarmasi**

X/p; 401722860272337045204110014
STIR; 200456075
MFO 00014
Mark.bank.Tosh.sh.Bosh boshqarmasi XKKM
Quyi chirchiq Gaznachilik
23402000300100001010
STIR 201122919

**Direktor** ______________**M.Axmedov**

**"Bajaruvchi"**

**"RAVON LOYIHA LUX" mas'uliyati cheklangan jamiyati**

Toshkent shahri, Sergeli tumani,
Shokirariq ko'chasi 82-uy
Tel./faks: (99897) 746-41-36,
H/r: 2020 8000 0051 6026 9001
"Ipoteka-bank" ATIB
Sergeli filiali
MFO: 00978 INN: 306 997 398
QQS kodi: 326070179846

**Direktor** ______________ **X. Abdullayev**

---

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | MAXMUDXON AXMEDOV IKRAMXONOVICH |
| | Imzolangan sana | 25.10.2022 11:48 |
| | Hujjat kodi | **ZC23085366** |
| | Hulosa kodi | **NZ2210121024** |

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: NZ2210121024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**

TOSHKENT VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI

QUYI CHIRICHIQ TUMAN ADLIYA BO'LIMI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

110901, Quyi chirchiq tumani, Do'stobod shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 46-uy
tel: (99870) 567 31 73, el. pochta: quyichirchiq-t@adliya.uz

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

NZ2210121024

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Quyi Chirchiq Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor M.Axmedovbir tomondan va "RAVON LOYIHA LUX" MCHJ (keyingi o'rinlarda Bajaruvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor X.Abdullayev ikkinchi tomondan, joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portal orqali (Lot raqami 22110012161490) e'lon qilingan va Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tuman Obodonlashtirish boshqarmasixarid komissiyasining 2022-yil 20-oktyabrdagi bayonnomasiga asosan shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: QUYICHIRCHIQ TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH VA KO'KALAMZORLASHTIRISH BO'LIMI tomonidan 21.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Quyichirchiq tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**U.I.FAYZULLAYEV**

25.10.2022

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 161490 на приобретение Чакмок МФЙ жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш-3

Способ проведения электронный

Дата 20.10.2022

Время рассмотрения 19.10.2022 12:26

Закупочная комиссия Куйи Чирчик тумани Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | AXMEDOV MAXMUDXON IKRAMXONOVICH | Рахбар | Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Секретарь комиссии** | SABIROV DJALALIDIN NURMAXAMMATOVICH | Иктисодчи (бухгалтер) | Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | KURALOV BOBIR ISRAILOVICH | Бош мухандис | Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | MIRZAYEV BAXROM RAIMQULOVICH | Ободон-ш объектларни саклаш булими мухандиси | Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | ISMAILOV MUROD BEDJIGITOVICH | Ободон-ш объектларини саклаш булими бошлиги | Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | KAXAROV XUSAN XAKIMZADEYEVICH | Инфратузилма объектларидан фой-ш булими булим бошлиги | Ободонлаштириш бошкармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 20.10.2022 года № лота 161490.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по проведению экспертизы проектно-сметной документации** |
| Подробное описание | Чакмок МФЙ жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш-3 |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 34 425 000.00 |
| Стартовая сумма | 34 425 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган моддий-техник воситалари рўйхати.

Тип: Текстовое значение

Описание: Компьютер (ноутбук) техникалари 5 дона ва ундан кўп. Сметаларни ҳисоблаб чиқишда қўллаш учун дастурий комплекс(ABC4-uz) 1 та. Плоттер 1 та. Принтер ва нусха кўпайтириш техникаси 2 тава ундан кўп. Ўлчов асбоблари (шагомер, метр) 1 та. Автомобиль 1 та. булиши зарур.

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| FINANCE CONSULTING BUSINESS MCHJ | 20 | мавжуд | 15 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | Taqdim qilindi | 0 | Экспертная | | |
| YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 20 | 10 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 илова | 20 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| "YANGI-HAYOT PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiy | 20 | ПРИЛАГАЕТСЯ | 15 | Экспертная | | |

Критерий №2 2. Энг яхши таклифларни танлашдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифларни танлашдаги ўхшаш ишларни ўз кучи билан бажариш: йилига буюртмачи бошланғич нархининг 50% сўмлик ва ундан кўп. (ҳар бир йил 4 балл билан баҳоланади). Энг яхши таклифларни танлаш савдосига ўхшаш профил бўйича охирги йили ўз кучи билан бажариш

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| FINANCE CONSULTING BUSINESS MCHJ | 25 | мавжуд | 10 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 25 | Taqdim qilindi | 0 | Экспертная | | |
| YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 25 | 25 | 10 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 25 | 25 | 10 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 25 | 5 илова | 12 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 25 | 25 | 12 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 25 | 25 | 12 | Экспертная | | |
| "YANGI-HAYOT PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiy | 25 | ПРИЛАГАЕТСЯ | 8 | Экспертная | | |

Критерий №3 Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўздан кечирганлиги тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўрганлиги ва ўрганиб чиққанлиги булиши зарур

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| FINANCE CONSULTING BUSINESS MCHJ | 2 | мавжуд | 2 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 2 | Taqdim qilindi | 2 | Экспертная | | |
| YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 2 | 2 | 2 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 2 | 2 | 2 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 2 | 4 илова | 2 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 2 | 2 | 2 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 2 | 2 | 2 | Экспертная | | |
| "YANGI-HAYOT PROJECT" mas'uliyati cheklangan jamiy | 2 | ПРИЛАГАЕТСЯ | 2 | Экспертная | | |

Критерий №4 1. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар.

Тип: Текстовое значение

Описание: Иш стажи 3 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 3 йил иш стажига эга 2 кишидан кам бўлмаган дипломга эга мухандис ва архитектор ходимларни мавжудлиги. Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош мухандисини мавжудлиги. Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош архитекторини мавжудлиги. Доимий равишда ишловчи 2 тадан кам бўлмаган малакали ишчи ходимлар (мутахассислар) мавжудлиги. Ходимларнинг ўртача сони 7кишидан кам бўлмаган

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| FINANCE CONSULTING BUSINESS MCHJ | 19 | мавжуд | 14 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 19 | Taqdim qilindi | 0 | Экспертная | | |
| YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 19 | 19 | 14 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 19 | 19 | 14 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 19 | 3 илова | 14 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 19 | 19 | 19 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 19 | 19 | 14 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "YANGI-HAYOT PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiy | 19 | ПРИЛАГАЕТСЯ | 14 | Экспертная | | |

Критерий №5 Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг молиявий аҳволи.

Тип: Текстовое значение

Описание: Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати мавжуд булишлиги. Охирги йилда фойдаси (солиқ тулангунга қадар) мавжудлиги. Иш ҳақи фонди фойда хисобда булишлиги. Ўз айланма маблағлари билан таъминланганлиги Объектнинг буюртмачи белгилаган бошланғич нархининг 20% миқдоридаги айланма маблағлар мавжудлиги (хизмат қилувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблағлари мавжудлиги тўғрисидаги маълумотнома асосида баҳоланади).

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| FINANCE CONSULTING BUSINESS MCHJ | 34 | мавжуд | 30 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 34 | Taqdim qilindi | 0 | Экспертная | | |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 34 | 34 | 25 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 34 | 34 | 30 | Экспертная | | |
| ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 34 | 2 илова | 30 | Экспертная | | |
| ООО FREIGHT SERVICES | 34 | 34 | 30 | Экспертная | | |
| ООО RAVON LOYIHA LUX | 34 | 34 | 30 | Экспертная | | |
| "YANGI-HAYOT PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiy | 34 | ПРИЛАГАЕТСЯ | 10 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО RAVON LOYIHA LUX | 34 425 000.00 | 14 800 000.00 UZS | 14 800 000.00 | 00.00 | 14 800 000.00 | 17.10.2022 09:31:05 | 20 |
| ООО FREIGHT SERVICES | 34 425 000.00 | 23 000 000.00 UZS | 23 000 000.00 | 00.00 | 23 000 000.00 | 16.10.2022 22:08:17 | 12.86957 |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 34 425 000.00 | 30 000 571.00 UZS | 30 000 571.00 | 00.00 | 30 000 571.00 | 14.10.2022 17:42:23 | 9.86648 |
| LUCKY REBIRTH | 34 425 000.00 | 25 000 000.00 UZS | 25 000 000.00 | 00.00 | 25 000 000.00 | 15.10.2022 12:07:06 | 11.84 |
| ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 34 425 000.00 | 15 491 250.00 UZS | 15 491 250.00 | 00.00 | 15 491 250.00 | 15.10.2022 18:41:51 | 19.10756 |
| FINANCE CONSULTING | 34 425 000.00 | 28 175 000.00 UZS | 28 175 000.00 | 00.00 | 28 175 000.00 | 10.10.2022 11:43:47 | 10.50577 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| BUSINESS MCHJ | | | | | | | |

**Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей**

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО RAVON LOYIHA LUX** | 62.4 | 20 | 82.4 |
| **ООО FREIGHT SERVICES** | 66.4 | 12.86957 | 79.26957 |
| ARCHIPELAG MCHJ | Не прошел | Не прошел | Не прошел |
| **YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ** | 56.8 | 9.86648 | 66.66648 |
| **"YANGI-HAYOT PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiy** | Не прошел | Не прошел | Не прошел |
| **LUCKY REBIRTH** | 52.8 | 11.84 | 64.64 |
| **ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP** | 62.4 | 19.10756 | 81.50756 |
| **FINANCE CONSULTING BUSINESS MCHJ** | 56.8 | 10.50577 | 67.30577 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 161490 от 20.10.2022 года на приобретение Чакмок МФЙ жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш-3 определила победителем:

ООО RAVON LOYIHA LUX
306997298

и резервный исполнитель: ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP (307759386)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | AXMEDOV MAXMUDXON IKRAMXONOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MIRZAYEV BAXROM RAIMQULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ISMAILOV MUROD BEDJIGITOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | KAXAROV XUSAN XAKIMZADEYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | KURALOV BOBIR ISRAILOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«ТАСДИКЛАЙМАН»
Тошкент вилояти Куйи Чирчик тумани
Ободонлаштириш бошкарма бошлиғи
М.Ахмедов
____ 2022 йил

Тошкент вилояти Куйи-Чирчик тумани ички кучаларни асфалт копламаси килиш учун лойиха смета хужатларини сифатли таёрлаш ишларини бажариш учун танлов комиссия йиғилиши

25 10 2022 йил

# ТАНЛОВ БАЁННОМАСИ
## № 20

Раислик килувчи
М.Ахмедов- рахбар

Комиссия аъзолари:
Б.Куралов-Ободонлаштириш бошкарма Бош мухандис.
М.Исмаилов-Ободонлаштириш обьекларни саклаш бўлим бошлиги
Б.Мирзаев- Ободонлаштириш обьекларни саклаш бўлим мухандиси
Х.Кахаров-Ободошлаштриш бошкарма Инфра тузилма бўлим бошлиги
Ж.Сабировв-Котиб

К У Н  Т А Р Т И Б И :

Кун тартибига Куйи-Чирчик тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан **жойлаштирилган махсус 2 кунлик мухокамадан сўнг** Куйи Чирчик тумандаги Чакмок МФЙ.даги ички йулларни **асфалт копламаси килиш учун лойиха смета хужатларини сифатли таёрлаш** ишларини бажариш буйича пудратчи ташкилотни аниклаш ва шартнома тузиш масаласи куйилди.

Кун тартибидаги масала юзасидан Куйи-Чирчик тумани Ободонлаштириш бошкармаси М.Ахмедов сўзга чикиб, **жойлаштирилган махсус 2 кунлик мухокамадан сўнг** бошланиш санаси **10.10.2022 йил - тугаш санаси 17.10.2022 йил лот раками 22110012161490 билан** куйилган Куйи Чирчик тумандаги Чакмок МФЙ.даги ички йулларни **асфалт копламаси килиш учун лойиха смета хужатларини сифатли таёрлаш** ишларини бажариш максадида, ташкилотимиз томонидан пудратчи ташкилотлардан лойиха ишларини бажариш учун куйидаги пудратчи ташкилотлар берган таклифлари яъний сифатли ва ўз вактида бажарилишини инобатга олиб ;

| № | Иш тури | Лот раками | ООО "RAVON LOYIHA LUX" | ООО "FREIGHT SERVICES" | "YOL LOYIHA TARAQQIYOT" MCHJ | "LUCKY REBIRH" | "FINANCE CONSULTING BUSINESS" MCHJ | ООО "OPTIMAL ARCHITECT" |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ КУЙИ ЧИРЧИК ТУМАНИ Чакмок МФЙ жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини сифатли таёрлаш | 22110012161490 | **14 800 000** | 23 000 000 | 30 000 000 | 25 000 000 | 28 175 000 | 15 491 250 |

Юкоридаги пудратчиларнинг тижорат таклифларни ўрганиб чикилиб лойиха смета хужжатлари сифатли тарзда ва ўз вактида топшириш,экспертизадан утказиш ишларини инобатга олиб комиссия аъзолари бир овоздан

**Қарор килади:**

1. ООО "RAVON LOYIHA LUX" томонидан таклим этилган барча таклифлари Ободонлаштириш бошкармаси томонидан **Куйи Чирчик туманидаги** Чакмок МФЙ.даги **ички йулларни асфалт копламаси килиш учун лойха смета хужатларини** арзон ва сифатли таёрлаш **ишлари учун жойлаштирилган махсус 2 кунлик мухокамадан сўнг хеч кандай таклиф ва салбий мурожаатлар келиб тушмаганлиги сабабли** комиссия аъзолари томонидан кўриб чикилиб, бир овоздан танлов голиби деб топилсин.
2. Бош хисобчи Ж.Салимовга таъминотчи **ООО "RAVON LOYIHA LUX"** билан тегишли хисоб китобларни инобатга олиб ташкилотимизнинг хисоб ракамидаги маблаглари ҳисобидан белгиланган тартибда шартнома тузилсин.
3.Куйи Чирчик тумандаги Чакмок МФЙ.даги ички йулларни **асфалт копламаси килиш учун лойха смета хужатларини** тайёрлаш ишларини бажариш ишларини сифатли ва муддатида бажарилиши назорат килишни ўз зиммамда колдираман.

**Комиссия аъзолари:**

| | |
|---|---|
| Комиссия раиси | М.Ахмедов |
| Бош мухандис | Б.Куралов |
| Ободонлаштириш обьекларни саклаш бўлим бошлиги | М.Исмаилов |
| Ободонлаштриш бошкарма Инфра тузилма бўлим бошлиги | Х.Кахаров |
| Ободонлаштириш обьекларни саклаш бўлим мухандиси | Б.Мирзаев |

**161490 лот юзасидан шаклланган дастлабки баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

| | |
|---|---|
| Муҳокама тугаган сана: | 25.10.2022 15:45 |
| Комиссия раиси: | AXMEDOV MAXMUDXON IKRAMXONOVICH |